**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAHASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**
**FARG‘ONA FILIALI**



## 1.1-MODUL. JAMIYAT IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIDA DEMOKRATIK O‘ZGARISHLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

# 3-mavzu:Ta’lim va tarbiya sohasidagi islohotlar - jamiyat rivojining muhim omili

**“Jismoniy tarbiya instruktori”** maktabgacha ta’lim tashkilotlari jismoniy tarbiya instruktorlari uchun

* **Reja:**
* **3.1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.**
* **3.2. Besh muhim tashabbus va yangi avlodni shakllantirish vazifalari**
* **3.3. Maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va istiqboldagi vazifalar**



## 3.1.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

2019 yil 8 mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4312-sonli Qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan

Ushbu qaror 2030 yilgacha maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

**O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi 5 ta bobdan iborat :**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

**2-bob. Maktabgacha ta’lim tizimining joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar**

**3-bob. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari**

**4-bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar**

**5-bob. Konsepsiyaning amalga oshirilishini monitoring qilish**

**barcha bolalarga sifatli maktabgacha ta'lim olish uchun bir xil imkoniyatlarni ta'minlovchi maktabgacha ta'limning samarali innovatsion tizimining shakllanishi;**

**maktabgacha ta'limni insonning butun hayoti davomidagi uzluksiz ta'limning birinchi bosqichi sifatida belgilash, bolani shaxs sifatida jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda uning roli oshirilishi;**

**maktabgacha ta'lim tashkilotlarining namuna va turlari xilma-xilligi asosida maktabgacha ta'lim tizimida institutsional o'zgarishlar amalga oshirilishi, mazkur sohada sog'lom raqobat muhitining yaratilishi;**

**zamonaviy energiya va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bino va inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashning kengaytirilishi, ularning o'quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o'yinlar va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar, mebel, kompyuter texnikasi, o'quv uskunalari bilan jihozlanishi;**

**maktabgacha ta'lim sohasiga xususiy sektorning jalb qilinishi, uning ijtimoiy javobgarligi oshirilishi, moliyalashtirish manbalarining kengaytirilishi va maktabgacha ta'lim xizmatlari turlarining ko'payishi;**

**maktabgacha ta’lim tizimini moliyalashtirishning ko‘paytirilishi, maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishda budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligining oshirilishi, pedagog xodimlar mehnatiga munosib haq to‘lashning ta’minlanishi;**

**maktabgacha ta’lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-davlat tizimi joriy etilishi;**

**olti yoshli bolalarning majburiy bir yillik bepul umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorlash bilan to‘liq qamrab olinishining ta’minlanishi;**

**3 — 7 yoshgacha bolalarning 80,8 foizini maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishining ta’minlanishi;**

**maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagog xodimlar soni 247,7 mingtagacha yetkazilishi.**

## 3.2. Besh muhim tashabbus va yangi avlodni shakllantirish vazifalari

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 19 mart kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan kompleks chora tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni ilgari surdi.**

**Birinchi tashabbus** yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

**Ikkinchi tashabbus** yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

**Uchinchi tashabbus** aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

**To‘rtinchi tashabbus** yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

**Beshinchi tashabbus** xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

## 3.3. Maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va istiqboldagi vazifalar

**Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo‘llab-quvvatlash orqali bolalarni maktabgacha ta’lim bilan keng qamrab olinishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori imzolandi.**





**Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish uchun 2019-2020 o‘quv yilidan boshlab, “Aqlvoy” maktabgacha ta’lim mobil guruhlari tajriba tariqasida qayta jihozlangan ISUZU HC 40 avtobuslari negizida tashkil etildi. Mobil ta’lim guruhlariga 1920 nafar maktabgacha yoshdagi bola qamrab olindi.**

**Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarinig mutaxassislari uchun “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi asosida maxsus ehtiyojga ega 2 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun 5 ta mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha moslashtirilgan va uyg‘unlashgan ta’lim dasturi yaratildi.**

Bugungi mavzu yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

**Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrab olinmagan bolalarni maktabga tayyorlashda qisqa muddatli tayyorlov guruhlarining roli muhim sanaladi. Ayni shu sababli kelgusida bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo‘lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etish ko‘zda tutilmoqda.**

**Qolaversa, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish ham mmaktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich qismi hisoblanadi.**

**U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otadi, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi.**

**Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va etuk shaxs bo‘lib shakllanishida muhim o‘rin tutadi.**

***E’TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!***